

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

ORGANIK SINTEZ KAFEDRASI

**"ORGANIK SINTEZ"
fanidan
uslubiy qo'llanma 4 kurs uchun
2-qism**

Bilim sohasi:	500000	- Sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot
Ta'lif sohasi:	510000	- Sog`liqni saqlash
Ta'lif yo'nalishi:	5510500	- Farmatsiya (Farmasevtika ishi) (Farmasevtik tahlil) (Klinik farmatsiya)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

ORGANIK SINTEZ KAFEDRASI



**“ORGANIK SINTEZ” fanidan
uslubiy qo'llanma 4 kurs uchun
2-qism**

Bilim sohasi:	500000	- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	510000	- Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi:	5510500	- Farmatsiya (Farmasevtika ishi) (Farmasevtik tahsil) (Klinik farmatsiya)

Toshkent-2022

Tuzuvchilar:

F.O.Po'latova-dosent, Organik sintez kafedrasi mudiri, k.f.n.

M.I. Olimova- Organik sintez kafedrasi assistenti, PhD

D.A. Ergasheva -Organik sintez kafedrasi dosent

Z.J.Abzalova– Organik sintez kafedrasi assistenti

Maksumova O.S Kimyo texnologiya instituti Organik kimyo va AOST
kafedrasi.k.f. d

Gaziyeva A.S Tashfarmi Analitik kimyo kafedrasi katta o'qituvchisi PhD.

Uslubiy qo'llanma kafedraning 2022 yil 08.06. №21- sonli yig'ilishida tasdiqlashga tavsiya etildi

Kafedra mudiri

Po'latova F.O.

Uslubiy qo'llanma soha uslubiy kengashining 2022 yil 15.06. dagi № 10 sonli yig'ilishida tavsiya etildi

Soha uslubiy kengashi raisi

To'xtayev X.R.

Uslubiy qo'llanma Markaziy uslubiy kengashning 2022 yil 28.06. dagi №11-
sonli yig'ilishda tasdiqlashga tavsiya etildi

Markaziy uslubiy kengashi kotibasi

Hodjimetova S.R.

Kirish

Hozirgi kunda organik sintez fani juda tez su‘ratlar bilan rivojlanmoqda. Organik sintez fani ishlab chiqarish bilan bezosita aloqadordir. Organik moddalar turmush va sanoatning turli sohalarida keng qo‘llaniladi.

Organik sintez fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitishda innovatsion va informatsion tehnologiyalardan hamda fanning takomillashtirilgan an‘anaviy usullaridan foydalilanadi. Kimyoviy tajribalarni ko‘rgazmali o‘tkazish, usullarini egallash talabalarda bilim, ko‘nikma va malaka hosil bo‘lishiga olib keladi. Talabalar organik sintez faniga oid bilimlarni mukammal egallashi, fanning dolzARB masalalaridan xabardor bo‘lishi va olgan bilimlarini farmasevtika sohasiga qo‘llay olishi kerak. O‘quv-uslubiy qo‘llanmada oliy o‘quv yurti dasturiga asosan barcha mavzularga xos tajribalar berilgan.

ORGANIK SINTEZ LABORATORIYASIDA TEXNIKA HAVFSIZLIGI

QOIDALARI

Organik sintez laboratoriyasida laboratoriya ishini boshlashdan avval, talaba texnika havfsizligi qoidalari bilan tanishib chiqishi shart va maxsus daftarga imzo chekishi lozim. Laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligi unga talabalarning e'tibori, nazariy bilimining chuqurligi bilan belgilanadi. Shuning uchun har bir talaba bajariladigan ishning nazariy ma'lumoti haqida xabardor bo'lsagina, bajaradigan ishining izchilligi haqida tasavvurga ega bo'lsagina ishni bajarishga ruxsat beriladi. Kimyo laboratoriyasida tajribalar o'tkazish uchun talabalar quyidagi ehtiyot choralarini ko'rishi kerak:

1. Har qaysi laboratoriya ishi belgilangan joyda bajarilishi shart.
2. Mashg'ulot paytida talaba maxsus kiyimsiz (xalat) ishlashi mumkin emas.
3. Mashg'ulot rejasida ko'rsatilmagan ishlarni bajarishi ta'qiqlanadi.
4. Laboratoriyada ishlaganda ozodalikka, saranjomlikka va havfsizlik texnikasi qoidalariга rioya qilishi lozim. Shoshilish va havfsizlik qoidalariга rioya qilmaslik tajribada xatolikka yo'l qo'yishga va ko'ngilsiz hodisalarga olib keladi.
5. Tajribani rahbarning ijozati bilan boshlash lozim. Ishni bajarish tartibi laboratoriya daftariга yozilishi va uni rahbar tekshirib ko'rgan bo'lishi lozim.
6. Agarda reaktivlarni hididan aniqlamoqchi bo'lsangiz, uni og'zidan o'zingizga tomon ohista yelpib hidlang.
7. Kontsentrlangan kislotalarni suyultirishda kislotani suvgaga jildiratib quyib, aralashtirib turgan holda suyultiring. Suvni kislotaga quyish mumkin emas.
8. Reaktivlarni probirkalarga quyishda ularni gavdangizdan uzoqroqda tuting.
9. Qizdirilayotgan reaktiv ustiga engashib qaramang.
10. Probirkaga biror modda solib qizdirayotganingizda uni og'zini o'zingizdan va yoningizdagи sheringizingizdan chetga buring.
11. Elektr asboblari bilan ishlashda, uni to'liq izolyatsiyalanganligiga ishonch hosil qilmasdan turib ish boshlamang.

12. Benzin, spirt, efir va shu kabi oson o't oluvchi moddalar o't olib ketsa, qum sepib o'chiring. Suv sepilmaydi, chunki alanga hajmi kengayib ketadi.
13. Kislota ta'sirida kuygan joy avvalo mo'l miqdordagi suv bilan, so'ngra suyultirilgan natriy bikarbonat eritmasi bilan yuviladi.
14. Agar biror yeringiz yong'in yoki issiqlik ta'sirida kuyib qolsa, kuygan joyingizni kaliy permanganatning suyultirilgan eritmasi bilan yuvish yoki streptotsid emulsiyasi surtish lozim.
15. Zaharli gazlar (xlor, brom, vodorod sulfid, oltingugurt yoki azot oksidlari) bilan zaharlanib qolgan kishini darhol ochiq havoga olib chiqish va tibbiyat xodimiga murojaat qilish lozim.
16. Ishqorlar ta'sirida zararlangan joyni avval qayta-qayta suv bilan, so'ngra esa sirkal yoki limon kislotasining suyultirilgan eritmasi (3%) bilan yuvish lozim.
17. Ishqor, kislota va yonuvchan suyuqliklarni rakinaga to'kish yaramaydi. Bunday keraksiz suyuqliklarni maxsus idishlarga quyish kerak. Rakinaga qum, qog'oz va shunga o'xhash narsalarni tashlamang.
18. Simob va simobli asboblar bilan ehtiyyot bo'lib ishlang. Simobli asbob (termometr va manometr) sinsa, uni tezda maxsus usul bilan yig'ib oling va suvli stakanga solib, simob to'kilgan joyga oltingugurt kukuni sepib uni zararsizlantiring.
19. Gazlar bilan ishlashda juda ehtiyyot bo'lish kerak, gazlar tozaligini tekshirib va asbob germetikligini aniqlab, so'ngra ish boshlash lozim.
20. Reaktiv olish uchun ishlatiladigan qoshiqcha va menzurkani aralashtirilib yubormaslik kerak.
21. Mashg'ulot tugagach, ishlatilgan moddalarni o'z joyiga qo'yish, asboblarni va shisha idishlarni tozalab yuvib, laborantga topshirish kerak.
22. Laboratoriyan dan ketishdan oldin gaz, vodoprovod jo'mraklarini berkitilganligini, elektr asboblarining o'chirilganligini tekshirib ko'ring.

LABORATORIYA ISHI № 1

MAVZU: NITROBENZOL SINTEZI.



Ishning asosiy maqsadi

Nitrobenzol sintez qilish, sintezlashda asosiy reaksiyalarni, texnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.

Ishning ahamiyati

Nitrobenzol sintez qilish haqida tushunchaga ega bo'lish va o'rghanish.

Brutto-formulasi – $C_6H_5NO_2$

Molekulyar formulasi -123,11 g/mol

Reaktivlar:


Konsentrangan nitrat kislota – 35 ml Konsentrangan sulfat kislota – 40 ml Benzol – 30 ml

Kaltsiy xlorid

Jixozlar:

250 tagi dumaloq 2 og'izli kolba, 50 ml li menzurkalar, tomchilatgich va ajratgich voronka, sovitgich, muzli xammom, magnitli mexanik aralashtirgich.

Reaksiya tenglamasi:



Ish bajarish tartibi: Shtativga mahkam o'rnatilgan va muz xammomiga qo'yilgan ikki og'izli kolbani katta og'ziga sovitgich o'rnatilgan, ikkinchi og'ziga varonka qo'yilib 35 ml nitrat kislota solinadi. Muz xammomida turgan nitrat kislota ustiga 40 ml sulfat kislata tomchilatkich voronkaga tomchilatib asta sekin solinadi idish qizib ketmasligi uchun. Kislotalar solingandan keyin ustiga 30 ml benzol ham tomchilatib solinadi va muz xammomi olib kuyiladi va suv xammomida 60 gradusda 1 soat magnitli mexanik aralashtirgich yordaiida aralashtiladi. Xosil bo'lган nitrobenzolni ajratgich voronka yordamida suv bilan yuvamiz ajratib olamiz va uni 208 gradusda xaydab olamiz. 57% 70,11 g olinib kaltsiy xlorid(qurutuvchi) solinadi.

1-Rasm. a)Suv hamomi



b) ajratgish voronka



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

- 1.Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
- 2.Sintez qurilmasining rasmini chizing.
- 3.Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim					Chiqim						
Nº	Dastlabki reagentlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Hajmda	Nº	Olingan mahsulotlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Hajmda
Jami:					Jami:						

1. Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab toping:

$$X = G_{naz}/G_{amal} * 100\% \quad \text{yoki}$$

$$X = V_{naz}/V_{amal} * 100\%$$

2. Yo'qotishlarni xisoblab toping:

$$Y = X_{naz} - X_{amal} * 100\%$$

3. Nitrobenzol xaqida ma'lumotlar va axamiyatini yozing.

Nazorat testlar

1. Quyidagi moddalardan qaysilari parasetomolni nitrobenzoldan farqlashga yordam beradi?

1 - FeCl₃, 2- NaHCO₃, 3- HCl, 4- fenol, 5 - etanol

A) 1,2,4

- B) 1,2,5
- C) 1,5
- D) 3,5

2 .Nitrobenzolning agregat holati qanday?

- A.Gaz
- B. Suyuqlik
- C. Qattiq
- D. To'g'ri javob yo'q

3. Sanoatda nitrobenzolni olish uchun,benzolga qaysi modda yoki moddalar aralashmasini qo'shish yo'li bilan olinadi?

- A. Konsentrangan nitrit kislota va sulfat kislota aralashmasi
- B. Konsentrangan nitrat kislota va sulfat kislota aralashmasi
- C. Nitrat kislota
- D. A va B javob to'g'ri

4. Benzolni nitrolash reaksiyasi birinchi marta kim tomonidan amalga oshirilgan?

- A. Loran
- B. Dyuma
- C. K. Grabe
- D. E. Mitcherlix

5. Xlorbenzolga ketma-ket nitroguruh kiritilganda qanday birikmalar hosil bo'ladi?

- A. Mono va trinitrohosilalar
- B. Mono, di va trinitrohosilalar
- C. Mono va dinitrohosilalar
- D. Bu reaksiya amalda bormaydi

6. To'g'ridan to'g'ri nitrolash yo'li bilan olib bo'lmaydigan nitroarenni aniqlang.

- A. p-dinitrobenzol
- B. m-dinitrobenzol
- C. trinitrobenzol
- D. A va B javob to'g'ri

7. Amalda portlovchi modda sifatida ishlatiladigan nitroarenni aniqlang.

- A. nitrobenzol
- B. nitrotoluol
- C. trinitrotoluol
- D. pikrin kislota

8. Laboratoriya sharoitida nitrobenzol olishda ishlatilmaydigan reaktivlarni aniqlang:1-kons. sulfat kislota;2-kons.nitrat kislota;3-kons.nitrit kislota;4-ammoniy gidroksid eritmasi

- A. 1 va 2
- B. 1 va 3
- C. 2 va 3
- D. 3 va 4

9. Nitrobenzolni ishlatalishi?

- A) anilin ishlab chiqarishda xomashyo
- B) sellyuloza efirlari uchun erituvchi
- C) organik bo'yagichlar olishda boshlang'ich mahsulot
- D) hamma javoblar to'g'ri

10. Nitrobenzolni organizmga salbiy ta'siri?

- A) markaziy nerv sistemasiga kuchli ta'sir qiladi
- B) moddalar almashinuvini ishdan chiqaradi
- C) qondagi gemoglobinni oksidlab, metgemoglobinga aylantiradi
- D) hamma javob to'g'ri


LABORATORIYA ISHI № 2
MAVZU: BENZILBENZOAT SINTEZI.

Ishning asosiy maqsadi:

Laboratoriya sharoitida benzyl spirti va benzaldegiddan benzilbenzonat sintez qilish. Benzilbenzonat haqida tushunchaga ega bo'lish, uni sintezlashda asosiy reaksiyalarni, tehnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.

Ishning ahamiyati: Aromatik birikmalarni sintez qilishni o'rganish hamda reaksiya jarayonini boshqara olish.

Brutto-formulasi $C_{14}H_{12}O_2$

Ish bajarish uchun kerakli reaktivlar:


Natriy metali – 0,3 gr, sof benzyl spirti – 7 gr, (0.065 mol), benzaldegid – 45,4 gr, (0,43 mpl)

Asboblar:

Yumaloq trubli kolba 500 ml, tomchilovchi voronka, aralashtirgich, isitadigan magnitli meshalka, muz xammom, benzilbenzonatni suvda yuvish uchun ajratgich voronka, fraksiyalash qurilmasi.

Ishning maqsadi:


Benzilbenzonatni sintez qilish bir bosqichda quyidagi sxema orqali amalga oshiriladi:



Ish bajarish tartibi:

500 ml tagi dumaloq kolbaga 7 gr sof benzyl spirti solinib unga 0,3 gr natriy metali ko'shib eriguncha qizdiriladi, yarim soat maboynda. Aralashma xona haroratigacha sovitiladi va eritma magnit meshalka orqali aralashtirilib turiladi. Magnit meshalka

bilan aralashtirilib turgan eritmaga 45,4 gr benzal'degid (uning tarkibida benzoy kislota 1% dan kam bo'lishi kerak) solinadi, harorat 50-60°C dan biroz pastroq ushlab turish kerak ya'ni reaksiyoning massani muzli xammomda bir muddat qo'yiladi (100°C yetishi mumkin emas, aks holda xaroratni ko'tarilishi benzil efrini xosil kiladi). Natijada xamirsimon jelatinli massa xosil bo'ladi, Taxminan 30 minutdan so'ng reaksiya xarorati ko'tarilmaydi. Shuning uchun suv xammomida 50-60°C ushlab turilishi uchun isitiladi aralashma kavatlarga ajralguncha kuyiladi va eng yukori kavat eritmasi olinib 1 litr suvda yuviladi bu 5 marta takrorlanadi. Olingan eritma vakkumda xaydaladi va 184-186°C haydalgan fraksiyasi olinadi. Unum 92 % ni tashkil kiladi.



2-Rasm. Benzilbenzonat sintez qilish qurilmasi

1- kolba; 2- termometr; 3-muzli hammom; 4- magnitli meshalk

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

- 1.Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
- 2.Sintez qurilmasining rasmini chizing.
- 3.Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim					Chiqim						
Nº	Dastlabki reagentlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Hajmda	Nº	Olingan mahsulotlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Hajmda
Jami:						Jami:					

4. Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab toping:

$$X = G_{\text{naz}} / G_{\text{amal}} * 100\% \quad \text{yoki}$$

$$X = V_{\text{naz}} / V_{\text{amal}} * 100\%$$

5. Yo'qotishlarni xisoblab toping:

$$Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$$

6. Benzilbenzonat xaqida ma'lumotlar va ahamiyatini yozing.

Nazorat testlari

1. Benzil benzoat dori sifatida birinchi marta nechinchi yilda o'r ganilgan ?

A) 1981- yilda B) 1918- yilda C) 1963- yilda D) 1936- yilda

2. Benzil benzoatning organik erituvchisini toping ?

A) Suv, B) Gliteserin kislotalari, C) Aseton va Benzolda, D) spirt va efir


3. Quyudagi rasmda 4 raqamda qanday asbob keltilgan ?

A) isitgich

B) Muzli hammom

C) sovutgich, kolba, plita

D) magnitli meshalka



4. Benzil benzoat sintez qilishda maksimal unum necha % ni tashkil etadi?

A) 85%

B) 92%

C) 100%

D) 82%

5. Benzil benzoat sintezida nima uchun haroratni 100 C ga oshirib bo'lmaydi?

A) bunda benzil efir xosil bo'ladi?

B) bunda benzil spirt xosil bo'ladi?

C) bunda benzoy kislota bug'lanib ketadi?

D) bunda benzil benzoat kuyib ketadi?

6. Yo'qotishlarni topish Formulasini aniqlang?

A) $Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$

B) $X = V_{\text{naz}} / V_{\text{amal}} * 100\%$

C) $X = G_{\text{naz}} / G_{\text{amal}} * 100\%$

D) $Y = X_{\text{naz}} + X_{\text{amal}} * 100\%$

7. Benzil benzoat olinishida qavatlarga ajralgandan so'ng qaysi qavati olinadi tajriba uchun?

A) pastgi qatlami

B) o'rta qatlami

C) yuqori qatlami

D) farqi yo'q

8. Sintez qilish usulida katalizator qaysi modda xisoblanadi?

A) C_6H_5OH

B) $C_6H_5CH_2OH$

C) C_6H_5ONa

D) $C_6H_5CH_2ONa$

9. Benzil benzonat qaysi sohalarda ishlataladi.

A) farmaceftika sohasida

B) medicina sohasida

C) qishloq hojaligida

D) hammasi to'g'ri

10. Benzil benzoati vaakumda xaydaladi va da haydalgan fraksiyasi olinadi.

A) $184-186^{\circ}C$

B) $178-180^{\circ}C$

C) $114-116^{\circ}C$

D) $104-106^{\circ}C$



LABORATORIYA ISHI № 3



MAVZU: AZOBO'YOQLAR SINTEZI

Darsning maqsadi: Talabalarga azobo'yoqlar sintezi misolida sintez jarayonlarini olib borish, optimal shart-sharoitlari, parametrlari va maxsulot chiqishi unumдорligи haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Darsning ahamiyati: Talabalarga azobo'yoqlarning tibbiyat soxasidagi axamiyatini tushuntirish.

Brutto-formulasi

Reaksiya tenglamasi



Reaktivlar

Anilin – 4.5 ml

2-Naftol – 7.2 g

Natriy nitrit – 4 g

Konc. HCl – 10 ml

10% natriy gidroksidi – 60 ml

Sirka kislotasi – 40 ml

Distillangan suv

Jihozlar: 250-300 ml Vyurs kolbasi, Ertameyer kolbasi, muz xammomi, termometr, shtativ, filtr qog'oz.

Ishning tartibi:

1. Ertameyer kolbasiga 4 ml anilin oling. Anilin kanserogen hisoblanadi. Ishlayotganda shaxsiy himoya vositalaridan foydalaning. Unga 10 ml konsentrangan HCl quying. Endi esa 20 ml distillangan suv qo'shib turib, uni aralashtirib turib eritmani bir hil holga keltiring, keyin esa muz hammomiga qoying va darajasini 0 – 5°C ga keltiring.
2. 4 g atrofida Natriy nitratni o'lchang (NaNO_2). 4 g natriy nitritni idishga oling va 10 ml distillangan suv qo'shing, keyin uni muz hammomiga joylashtiring.
3. Boshqa idishga 2.2 g 2 – Naftolni o'lchang. O'lchab bo'lgach uni 250 ml idishga o'tkazing va 10% natriy gidroksidida eriting (60 ml) va aralashtirishni unutmang. Eritma to'q jigarrang rangga kiradi va beta naftol eritmasi hosil bo'ladi.
4. Uchala aralashmani muz hammomda 0 – 5°C darajada ushlab turing.
5. Sovutgandan so'ng,sovuq natriy nitrit eritmasini sovuq anilin xlorid kislotasiga quying (doimiy aralashtirish bilan kichik qo'shimchalarda natriy nitritni to'kib tashlang). Natijada benzol diazonium xlorid hosil boladi va bu aralashma to'q sariq rangga kiradi. Uni yana muz hammomiga joylashtiring. Har doim eritmalar haroratiga e'tibor bering.
6. 0 – 5°C darajaga tushgandan keyin, benzol diazonium xloridni beta naftol eritmasi bo'lgan idishga doimiy aralashtirishgan holda soling. Keyin esa 2- naftol anilin bo'yog'ining to'q qizil rangli cho'kmasini kuzating.
7. Benzol diazonium xlorid to'liq qo'shilgandan so'ng, to'liq cho'kma paydo bo'lishi uchun mahsulotni muz hammomida taxminan 30 daqiqa ushlab turing. Keyin esa, uni filtrdan o'tkazing.
8. Filtrashdan keyin mahsulotni yangi idishga oling va tozalash jarayonini boshlang. Idishga 25 ml muzli sirka kislotasini qo'shing. So'ngra mahsulotni isiting va yana filtrdan o'tkazing va oxirida uni quruting. Natijada, 2-naftol anilin boyoqi hosil boldi.



3-Rasm. Muz hammomi va filtrlash qurilmasi

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

- 1.Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
- 2.Sintez qurilmasining rasmini chizing.
- 3.Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim					Chiqim				
Nº	Dastlabki reagentlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Nº	Olingan mahsulotlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada
Jami:					Jami:				

1.Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali hisoblab toping:

$$X = G_{\text{amal}} / G_{\text{naz}} * 100\% \quad \text{yoki}$$

$$X = V_{\text{amal}} / V_{\text{naz}} * 100\%$$

2.Yo'qotishlarni hisoblab toping:

$$Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$$

3. Azobo'yoqlar sintezi haqida ma'lumotlar va ahamiyatini yozing.

Mavzu bo'yicha test savollari

1. 72g Naftol ekvivalent miqdorda NaOH eritmasi bilan eritilgandan so'ng hosil bolgan modda massasini toping?

- A)166 g;
- B)83 g ;
- C)332 g;
- D)41.5 g.

2. Sovuq natriy nitrit eritmasini sovuq anilin xlorid kislotasiga quyiladi. Natijada qanday modda hosil boladi va nega uni yana muz hmmomiga joylashtiriladi?

- A)benzol diazonium xlorid, cho'kma hosil bolishi uchun;
- B)anilin, gaz hosil bolishi uchun;
- C)naftalin, muzga solish shartmas;
- D)beta-naftol, erishi uchun.

3.69 gram 2-naftol anilin olish uchun necha gramm anilin talab qilinadi?

- A)93;
- B)23,25;
- C)63;
- D)13;

4.0,5mol 2-naftoldan necha gram 2-naftol anilin olish mumkin?

- A)276;
- B)138;
- C)100;
- D)50.

5. 2-naftol anilin olishda Benzol diazonium xlorid to'liq qo'shilgandan so'ng nima uchun muz hammomida taxminan 30 daqiqa ushlab turiladi?

- A) to'liq cho'kma paydo bo'lishi uchun;
- B) reaksiya mahsulotlari sovushi uchun;
- C) vaqtinchalik reaksiya toxtatish uchun;
- D) bu reaksiya tartibi ta'siri yo'q.

6.9,3 gr anilin diazotirlash reaksiyasiga kirishganda 11,24 gr benzildiazoniy xlorid hosil bo'ldi. Reaksiya unumini foizda aniqlang.

- A.80%;
- B.90%;
- C.70%;
- D.60%.

7.Anilin olishda reaktivlarni togri belgilang?

- A) anilin, 2 naftol, natriy nitrit, Xlorid kislotasi, natriy gidroksid, sulfat kislota;
- B) Anilin, angidrid karbonat, sulfat kislota, xlorid kislota;
- C) anilin, vodorod, temir xlorid;

D) natriy gidroksid, xlorid kislota, anilin, sulfat kislota.

8. 2-naftol anilin olish uchun aralashmalar muz hammomida qanday haroratda saqlanadi?

- A) 0 - 5°C;
- B) 5 - 10°C;
- C) 2°C;
- D) 0°C.

9. Azobo'yoqlar tarkibiga quyidagi reaktivlardan qaysi biri kiradi?

- A) yod benzol;
- B) 2-naftol;
- C) etilatsetat;
- D) akrilonitril.

10. 0,15 mol benzildazoniy xloridga 2-naftolni birikishi natijasida hosil bo'lgan 2-naftolanilin miqdorini aniqlang. Reaksiya unumi 70%.

- A) 0,105 mol;
- B) 0,3 mol;
- C) 0,15 mol;
- D) 0,2 mol.

LABORATORIYA ISHI № 4



MAVZU:PIROLIZ KISLOTA SINTEZI

Ishning asosiy maqsadi

Piroliz kislota haqida tushunchaga ega bo'lish, uni sintezlashda asosiy reaksiyalarni, texnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.

Ishning ahamiyati


Piroliz kislota sintez qilishni o'rganish hamda olib borish.

Brutto-formulasi: $C_5H_4O_3$

Molekulyar formulasi: 106 g/mol

Suyuqlanish harorati: 128 -132 °C

Qaynash harorati: 230-232 °C



Piroliz kislota hossalari:

Spirt va efirda eriydi. Furfurol hidi yngi yopilgan nonni hidiga o'xshaydi. Havoda tursa qorayib smologa aylanadi

Reaktivlar:

Yangi haydalgan furfrol – 12.5 ml

NaOH- 22.5 g

Brom – 80 ml.

Kons. HCl – 15 ml


Sintez jarayoni:

Muz hammomiga o'rnatilgan 3 og'izli kolbaga termometr, qaytar sovitgich va tomchilatgich voronka o'rnatilib, magnitli meshalka solinib mahsus aralashtirgich asbob ustiga qo'yiladi.

Unga 22.5 g NaOH, 65 ml suv solib 5°C gacha sovutiladi, uni ustiga 80 ml brom solinadi. Har bir tomchi 6 sekund davomida tomchilab solinadi gipobromid natriyni olish uchun. Harorat 4-5°C dan oshmasligi kerak. Brom quyib tugagach, tomchilatgich voronkaga furfrol solinadi va qaytar sovitgich ishga tushuriladi. Furfrol 15 daqiqa davomida tomchilab solinadi. Muz hammomi 4-5°C da ushlab turiladi, chunki reaksiyon massa ko'tarilib ketmasligi kerak, unga NaCl - oddiy osh tuzi solinadi. Furfrol ko'milgandan keyin, magnitli meshalka yordamida, reaksiyon massani 15 daqiqa aralashtirib turiladi.

Keyin 15 ml kons. HCl ko'shiladi. Yarim daqiqa aralashtirgich shotta voronkada cho'kma tushadi. Cho'kma filtrlab olinadi. Cho'kmani 5 ml soviq suvda yuvib, quritib olamiz. Shunda tahminan 10.455 g Piroliz kislota olinadi.

Sintez reakciyasi:



Qo'llanilishi:

Piroliz kislota qo'plab oziq-ovqatlarga hushboy tam beruvchi sifatida ishlataladi, Yana u sterilizasiya qilish, yani dezinfeksiyada yordam beradi.



4-Rasm. Reaktor



va

ajratish qurilmasi

Mustaqil bajarish uchun vazifalar:

1. Laboratoriya daftariga sintez jarayonining bayonini yozing.
2. Sintez qurilmasining rasmini chizing.
3. Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim						Chiqim					
Nº	Dastlabki reagentlar	Mol . og., g.	Zic hlig i, g/s m ³	Mass ada	Xaj mda	Nº	Olingan mahsulotlar	Mol . og., g.	Zic hlig i, g/s m ³	Mass ada	Xaj mda
	Jami:						Jami:				

4. Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab topping:

$$X = G_{naz}/G_{amal} * 100\% \quad \text{yoki}$$

$$X = V_{naz}/V_{amal} * 100\%$$

5. Yo'qotishlarni xisoblab topping:

$$Y = X_{naz} - X_{amal} * 100\%$$

6. Piroliz kislota xaqida ma'lumotlar va axamiyatini yozing.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Piroliz kiskota кандай maxsulotlar tarkibiga kiradi.

- A) Tabiiy maxsulot
- B) Sintetik maxsulot
- C) Yarim tabiiy maxsulot
- D) Hammasi to'g'ri

2. Piroliz kislota asosan nima maksadda ishlatiladi.

- A) Oziq-ovqatlarga hushboy tam beruvchi sifatida ishlatiladi.
- B) Sterilizaciya qilish yani dezinfekciyada yordam beradi.
- C) Asosan yarim tabiiy maxsulot sifatida
- D) Hammasi to'g'ri

3. Piroliz kislotani sintez kilishda kerakli reaktivlarni kursating.

- A) Yangi haydalgan furfurol, натрий гидроксид, бром ва хлорид кислота
- B) Sirka kislota va etil spirti
- C) Malon kislotasining dimetil efiri, mochevina, xlorid kislota.

Д) Siklogeksanol, nitrat kislota

4. Piroliz kislotani qaynash, suyuqlanish haroratini toping:

- A) 230-232 °C va 128 -132 °C
- B) 230-232 °C va 120 -122 °C
- C) 238-240 °C va 128 -132 °C
- Д) 260-262 °C va 134 -136 °C

5. 12.5 ml yangi haydalgan furfuoldan qancha Piroliz kislotani olish mumkin

- A) 10.455 g Piroliz kislota olinadi.
- B) 15.55 g Piroliz kislota olinadi.
- C) 18.25 g Piroliz kislota olinadi.
- Д) 9.5 g Piroliz kislota olinadi.

6. 20.91 g Piroliz kislotani olish uchun qancha yangi haydalgan furfuoldan qancha kerak.

- A) 15.55 ml
- B) 25.00 ml
- C) 25.55 ml
- Д) 35.55 ml

7. Nega Furfurol 15 daqiqa davomida tomchilab solinganda muz hammom 4-5°C ushlab turiladi

- A) Chunki reakcion massa ko'tarilib ketmasligi uchun
- B) Reaksiyada teskari jarayon bulmasligi uchun
- C) Unum yaxshi chikishi uchun
- Д) Hammasi to'g'ri

8. 41,182 g Piroliz kislotani olish uchun yangi haydalgan furfuoldan qancha kerak.

- A) 50 ml
- B) 60 ml
- C) 45 ml
- Д) 75 ml

9. Piroliz kislotani olish uchun furfurol asosandan olinadi

- A) Kyngaboqar va buqoy
- B) Sintez yoli bilan.
- C) Tabiiy va sintez yoli bilan.
- Д) Hammasi to'g'ri

10. Sintez kilib olingan piroliz kilotani voronkada nima bilan yuviladi.

- A) Suv
- B) Etil spiriti
- C) 30% suvli spirit
- Д) Etilasetat

LABORATORIYA ISHI № 5



MAVZU: PARASETAMOL SINTEZI.

Ishning asosiy maqsadi

Paratsetamol haqida tushunchaga ega bo'lish, uni sintezlashda asosiy reaksiyalarni, texnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.

Ishning ahamiyati

Parasetamol sintez qilishni o'rghanish hamda qayta kristallahash jarayonini olib borish.

Brutto-formulasi C₈H₉NO₂

Kimyoviy formulasi p-HO-C₆H₄NHCOCH₃

Molekulyar massasi 151 g/mol

Suyuqlanish harorati 168-169°C

Reaktivlar: p-Aminofenol – 1 g,

sirka angidridi ($d^{20}_4 = 1,082 \text{ g/sm}^3$) – 1,2 g

etanol – 20ml


aktivlangan ko'mir – 150 ml

Jihozlar: sig'imi 50 ml bo'lган tagi dumaloq kolba, Bunzen kolbasi, Byuxner voronkasi, qaytar sovitgich, suv hammomi, termometr, kristallizator.

Ish tartibi.

1. Havo sovitgichi o'rnatilgan sig'imi 50 ml bo'lган tubi yumaloq kolbaga 1 g p-aminofenolni 10 ml suvg'a aralashirgan holda solinadi. Ustiga 1,2 ml sirka angidrid solib, aralashma 15 daqiqa p-aminofenol to'liq erib ketgunicha suv hammomida qaynatiladi. Keyin qizdirilgan kolba sovutiladi va Byuxner voronkasida p-atsetilaminofenol cho'kmasi filtrlab olinadi. Cho'kma 10 ml suv bilan yuviladi va quritiladi. Parasetamolni tozalash uchun qayta kristallahash usulidan foydalaniladi. Bunda suytirilgan etil spirti (45%) dan foydalaniladi (1 gr cho'kma uchun – 5 ml suv va 2 ml spirt). Olingan mahsulotni 20 ml etanolda eritamiz va ustiga 0,1 g aktivlangan ko'mir solib qaynatamiz. Qaynab chiqqan massani Byuxner voronkasida filtrlaymiz. Bunda filtr qog'ozda aktivlangan ko'mir, kolbada esa etanol aralashmasi ajraladi. Kolbadagi aralashma sovutiladi va p-atsetilaminofenol kristallari filtrlab olinadi. 6,5 g (87%) unum bilan mahsulot olinadi.

Reaksiya tenglamasi





5-Rasm. Sintez qurilmasi



6-Rasm. Filtrlash qurilmasi

Nazorat savollari

1. Reaksiya unumi 85%ni tashkil qilsa, 0,7g aminofenoldan qancha p-asetilaminofenol olish mumkin?
2. 8,5g p-Asetilaminofenol olish uchun kerak bo'ladigan boshlang'ich moddalar miqdorini ko'rsaing. Reaksiya unumi 75%
3. Izomer aminofenollarning tuzulish formulalarini yozing.
4. Aminofenollarning hidroksil guruhi bo'yicha boradigan reaksiyalariga misollar keltiring.
5. Tarkibida aminofenol molekulasi fragmentini saqlagan dori preparatlariga misollar keltiring

Mustaqil bajarish uchun topshriqlar

1. Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
2. Sintez qurilmasining rasmini chizing.
3. Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim				Chiqim			
№	Dastlabki reagentlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Hajmda	№	Olingan mahsulotlar
Jami:				Jami:			

4. Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali xisoblab toping:

$$X = G_{\text{ama}} / G_{\text{naz}} * 100\% \quad \text{yoki}$$


$$X = V_{\text{amal}} / V_{\text{naz}} * 100\%$$

5. Yo'qotishlarni xisoblab toping:

$$Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$$


Mavzu yuzasidan topshiriqlar

Klaster usulidan foydalanib parasetamol sintezi jarayonida qayta kristallash jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsating.



Mavzu bo'yicha nazorat savollari


1. Reaksiya mahsuloti (A) oksidlanganda qanday kislotalalar hosil bo'ladi?



2. $\text{C}_4\text{H}_6\text{O}_2$ tarkibli bir asosli kislotalarning izomerlarini yozing va sistemarik nomenklatura bo'yicha nomlang. Akril kislotaning 0,1mol miqdorini sintez qilish uchun kerak bo'ladigan akrilonitrilning massasini toping.

3. Nitril usuli bo'yicha 2-metil-1-xlorpropandan kislota sintez qiling. Reaksiya tenglamasini yozing va hosil bo'lgan kislotani nomlang

4. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshiring



Test topshiriqlari

1. Amino-fenollar bu.....

- a. Molekulasi alfa amino kislotalardan tashkil topgan yuqori molecular birikmalar
- b. Tarkibida Purin va Pirimidin qoldiqlari tutgan nuklein kislotalardir
- c. Molekulalarida – amino va karboksil gruppalar bo'lgan organik kislotalardir
- d. Benzol halqasining – gidroksil va – amino gruppalar bilan bog'langan birikmasidir

2. Parasetomol (p-asetilamino-fenol) ni IYuPAK nomenklaturasida nomlang

- a. N,N- diaseto-gidroksi benzol
- b. p-asetilamino-fenol
- c. N-asetil-fenol
- d. N-(4-gidroksifenil) asetamid

3. Parasetomol sintezining ohirgi bosqichi qanday reaktsiya mexanizmi asosida boradi
- Alkillash
 - Atsillash
 - Aminlash
 - Nitrolash
4. p-asetilaminofenol perekristallisatsiya jarayoni uchun qo'llaniladigan moddani tanlang.
- Sirka kislota
 - Etil spirit
 - Suv
5. Quyidagi moddalardan qaysilari parasetomolni nitrobenzoldan farqlashga yordam beradi?
- 1.FeCl₃2.NaHCO₃3.HCl 4.fenol 5.etanol
- 1,2,4
 - 1,2,5
 - 1,5
 - 3,5
6. parasetomol bn p-nitrofenolni qaysi modda yordamida farqlash mumkin?
- chumoli aldegidi
 - propanon
 - butan kislota
 - atsetilen
7. parasetomoldagi – OH guruh kislotaligiga -NHCOCH₃ guruhning tasiri qanday?
- OH ni kislotaligini oshiradi
 - OH ni asosligini oshiradi
 - OH ni kislotaligini kamaytiradi
 - o'zgarmaydi
8. Qaytarish reaktsiyasi deganda nimani tushunasiz?
- molekulani vodorod bilan to'yintirish
 - molekulaga galogen biriktirish
 - molekulaga amin guruhi ta'sir etish
 - molekulani kislorod bilan to'yintirish

LABORATORIYA ISHI № 6



MAVZU: ANESTEZIN SINTEZI

Ishning asosiy maqsadi

Anestezin sintez qilish, sintezlashda asosiy reaksiyalarni, texnologik parametrlarni va jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rib chiqish.

Ishning ahamiyati

Brutto-formulasi	C ₉ H ₁₁ NO ₂
Kimyoviy formulasi	p-NH ₂ -C ₆ H ₄ COOC ₂ H ₅
Molekulyar massasi	165,21 g/mol

Anestezin sintez qilish haqida tushunchaga ega bo'lish va o'rganish.



Анестезин

para-aminobenzoy kislotaning etil efiri. Oq rangli kukunsimon modda. Mahalliy anestizirlovchi modda. 20 asrning boshlarida mazlar, prisipkalar sifatida jarohatkangan yuzani og'riqsizlantirishda, oshqozon va ichakdag'i og'riqlarda qo'llanilgan. Gemorroyda anestezinli cvechalar buyurilgan


Reaktivlar:

Temir kukuni - 1,5 g
Ammoniy xlorid – 0,15 g
p-nitrobenzoy kislotaning etil efiri- 1,3g
Natriy karbonat-1,0 g
Izopropil spirt – 30 ml
Aktivlangan ko'mir – 0,05 g
Natriy gidro sulfat(NaHSO₄)- 0,05 g

Jihozlar:

3 og'izli kolba - 250 ml, Ajratgich voronka, Libix sovutgichi, Suvni haydash qurilmasi



Reaksiya tenglamasi:



Ish bajarish tartibi:

Aralashtirgich, termometr va qaytar sovutgich bilan jihozlangan uch og'izli kolbag'a 1,5 g temir kukuni solinadi. So'ngra ustiga 20 ml suv va 0,15 g ammoniy xlorid solinadi. Temperatura 95-97°C ga yetguncha 20 min davomida qizdiriladi. 1,3 gr p-nitrobenzoy kislotaning etil efiri qizdirilgan massani ustiga solinadi va 98-102°C gacha qizdiriladi. So'ngra aralashma suv hammomida 1,5 soat davomida qaynatiladi. Aralashma 40-45°C gacha sovutiladi va ustiga 1,0 g Na₂CO₃ solib aralashtiriladi. Aralashma 10-15 min aralashtirmagan holda 5-10°C gacha sovutiladi va aralashmaning qattiq (cho'kma) qismi filtrlab olinadi. Olingan anestezinining qattiq aralashmasini 30 ml izopropil spirtida 15 minut davomida aralashtirgan holda 65-70°C da ekstraktsiya qilinadi. Anestezin ekstrakti 0.05 g aktivlangan ko'mir va 0.05 g natriy gidrosulfat bilan aralashtiriladi hamda 15 min 65-70°C da qaynatiladi

va qaynoq holda filtrlanadi. pH=5-5,5 bo'lguncha olingan filtratga HCl(kons) tomchilab solinadi. Qaynoq aralashmani aralashtirgan holda aralashma loyqalangunga qadar qaynagan suv qo'shiladi. 5-7°C da texnik kristallar hosil bo'ladi va filtrlanadi. Cho'kma suv bilan asta-sekin yuviladi va 1,1 g (97%) anestezin olinadi.



7-Rasm. Sintez moslamasi

Mustaqil bajarish uchun topshriqlar

- 1.Laboratoriya daftarga sintez jarayonining bayonini yozing.
- 2.Sintez qurilmasining rasmini chizing.
- 3.Sintez jarayoni uchun moddiy balans jadvalini tuzing.

Kirim					Chiqim						
N ₂	Dastlabki reagentlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Hajmda	N ₂	Olingan mahsulotlar	Mol. og., g.	Zichligi, g/sm ³	Massada	Hajmda
Jami:					Jami:						

Mahsulot chiqishini quyidagi formula orqali hisoblab toping:


$$X = G_{\text{ama}} / G_{\text{naz}} * 100\% \quad \text{yoki}$$

$$X = V_{\text{amal}} / V_{\text{naz}} * 100\%$$

Yo'qotishlarni hisoblab toping:

$$Y = X_{\text{naz}} - X_{\text{amal}} * 100\%$$

Pedagogik texnologiya usulini qo'llash. Anestezinga sifat reaksiyalarini keltiring



Mavzu bo'yicha test savollari

1. Anestezin sintezi uchun kerakli bo'lgan reagentlarni tanlang.
1.p-nitrobenzoy kislotasining metilefiri. 2. Suv. 3. Ammoniyxlorid. 4. *p*-nitrobenzoy kislotasining etil efiri. 5. Temir. 6. Mis. 7. Alyuminiy. 8. m-nitrobenzoy kislotasining metil efiri
a. 1,2,3,4
b. 1,4,7,8
c. 3,4,5,2
d. 3,4,6,2
2. Anestezinning molekulyar massasini hisoblang
a. 106 g/mol
b. 165 g/mol
c. 100 g/mol
